

O'ZBEKISTON TABIATINI GEOGRAFIK O'RGANILISH TARIXI (QIZILQUM CHO'LI MISOLIDA)

R.T. Erkinov,

D.Sh. Ro'zimov

Buxoro Davlat Universiteti

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Qizilqum cho'lining o'rganilish tarixi, mazkur hududda tadqiqot olib borgan olimlar haqida umumiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: paleontologik tadqiqotlar, Qizilqum tabiiy geografik okrugi, Quyi Zarafshon, geologik tadqiqotlar, geomorfologik tadqiqotlar.

Qizilqum cho'li Amudaryo va Sirdaryo daryolarining oralig'ida joylashgan yirik cho'ldir. Maydoni 300.000 km² bo'lib, maydoni jihatidan dunyoda 15-o'rinda (Sonora cho'lidan keyin). Markaziy Osiyoda Qoraqum cho'lidan biroz kichiklik. Qizilqum cho'lining dengiz sathidan o'rtacha balandligi 300 metr atrofida. Cho'l hududida iqlim o'ta keskin kontinental bo'lib yoz fasliga xos iqlim may-sentabr oylarida hukm suradi. Yozda havo harorati +52°C gacha yetishi mumkin (1983 yil iyul oyi Kerki shahri yaqinidagi meteostansiya ma'lumoti, Turkmaniston). [3] Qizilqum toponomi turkiy so'z bo'lib, mazkur joyda keng tarqalgan bor davri qizg'ish qumlarining nomidan kelib chiqqan bo'lish ehtimoli mavjud. Daryo yotqiziqlari keng tarqalgan hududlarda sarg'ish va kulrang qumlar tarqalgan. Qizilqum qum yuzasi baxranlar, taqirlar va mustahkamlangan qumlar bilan harakterlanib, yozda qum yuzasidagi juda qizib ketadi. Qizilqum cho'lining o'tmishi va bugunini tadqiq etuvchi olimlar bu zamin haqida doimo katta qiziqish bilan so'zlashgan. [2; 49-b]

O'z davrida Buyuk Ipak yo'lining muhim o'tkazish tarmog'i bo'lgan Qizilqum cho'li hududlari qadimdanoch chuqur o'rganilgan. Islom uyg'onish davri olimlaridan biri bo'lgan buyuk arab sayyoh geografi Ibn Batuta o'zining Buyuk Ipak yo'li bo'ylab Xitoyga qilgan safarida Ustyurt orqali Xorazmga, undan Qizilqum orqali Buxoro va Samarqandga keladi. Natijada o'zi bosib o'tgan hududlar haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldiradi. Yana bir arab sayyohi Ibn Xavqal 976 yili O'rta Osiyoda bo'lib, "Masofalar (yo'llar) va mamlakatlar kitobi"ni yozadi. Bu kitobda O'rta Osiyo qumli cho'llari va vohalari haqida batafsil yozilgan. Shuningdek, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Abdulloh Muhammad ibn at-Termiziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Bakr Narshahiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy singari buyuk allomalar ham o'zining geografiyaga oid bir qator asarlarida Buxoro va Xorazm hududini ajratib turuvchi yirik cho'l haqida yozib qoldirganlar. Qadimda oddiy va ulkan cho'l deya baholangan Qizilqum o'zining geologik foydali qazilmalari bilan bugungi Yangi O'zbekistonning uchun haqiqiy "javohiriga" aylangan. [1; 12– 15 b]

Geologik tadqiqotlar natijasida Qizilqum hududi qadimiy tarixga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Kembriy davri o'rtalarida cho'l hududi sayoz dengizdan iborat bo'lgan va shu davrdayoq ohaktosh qatlamlari vujudga kelgan. Ordovik va silur davrlarida terrigen, terrigen-effuzivli, karbonatli formatsiyalar to'plangan. Quyi silur davrida esa past tog'li orollar vujudga kelgan. Venlok va Ludlov arslarida dengiz chekinib Qizilqum markazidagi tog' hududlari burmali harakatlar natijasida yirik quruqlikka aylanadi (Bo'kantov, Ovminzatov, Aristantov). Quyi devon davriga kelib dengiz bosib kelishi jarayoni ro'y beradi. Natijada esa hozirgi qoldiq tog'lar negizida orol-tog' landshaftlari shakllanishi davom etadi. Tog'larning yuza qatlami keskin yemirilish-nurash jarayonini boshidan kechiradi. Yuqori devon asriga kelib Qizilqum hududi dengiz suvlaridan holi quruqlikka aylandi. Ammo mazkur asrda dengiz bosib kelish hodisasi yana ro'y beradi. Tog'lar yana orol ko'rinishiga qaytadi. O'rta karbon davrida dengiz chekinishi hisobiga cho'l hududlarida kontinental yotqiziqlar vujudga kela boshladi. Yuqori karbon davridan to trias davriga qadar Qizilqum hududi denudatsiya oblastidan iborat bo'lgan. Bo'lajak cho'lning barcha joylarida kaolinli nurash qobig'i hosib bo'ladi. Quyi bo'r davrida (Alp asri) janubiy hudud (Quljuqtov) da dengiz havzasining sohili mavjud bo'lgan. Lekin Senoman asrining boshlarida janubiy hududlarda dengiz transgressiyasi kuchayib, unchalik chuqur

bo'lmagan havzalarda yashil-kulrang gil va qum toshlar hosil bo'ldi. Quyi va yuqori Turon davrida dengiz bosib kelishi va chekinishi hodisasi ro'y berdi va hududda yana kontinental yotqiziqlar to'plana boshladi. O'rta eotsenda dengiz yana transgressiyasi kuchayib mergel va gil, konglomerat yotqiziqlari hosil bo'ladi. Oligotsen va neogen davrlaridagi tektonik harakatlar Qizilqum hududidagi tog'larni burmalantirib ancha yoshartirdi. Qizilqum cho'li hududidagi hozirgi past tog'lar Tyanshan tizma tog'larining davomi bo'lgan Nurota, Turkiston va Zarafshon tizma tog'lariga mos ravishda gorizonta (kenglik bo'yicha) joylashgan. Markuz past past tog'lar Sulton Uvays tog'lari orqali shimolga burilib, submeridional yo'nalishda Ural tog'lari bilan tutashib ketgan. Markaziy Qizilqum geologik tuzilishi va rivojlanish tarixini X.M. Abdullayev, I.X. Hamroboyev, K.K. Pyatkov va A.K. Buxarinlar o'rganishgan. [1; 311– 312 b] Qizilqumdagi qoldiq tog'lar mineral va rudali foydali qazilma resurslariga boyligi bilan alohida ajralib turadi. 1970 yilda ishga tushirilgan Muruntov oltin koni (chuqurligi 650 metr, uzunligi 4.3 km eni 3.2 km, 2020 yil) yurtimizning "oltin sandig'i"dir. Kon 2020 yilda kelib 57 tonna sifatli oltin bergani Kitco kompaniyasi ekspertlari tomonidan tuzilgan jahon reytingida yetakchilik qildi.

XX asr 60 yillarigacha Qizilqum cho'lidagi eol qumlarining kelib chiqishi haqida olimlar o'rtasida uzoq vaqt mobaynida tortishuvlar mavjud bo'lgan. Keyinchalik, pliotsen qumtohlari va qumlarning shamol ta'sirida deflyatsiyaga berilishi natijasida eol qumlari tarkib topganligi mexanik, minerologik, paleogeografik jihatdan asoslandi. Cho'lda eng ko'p marzali qum shakllari hukmronlik qilishi tadqiqotlar orqali aniqlandi. Insoniyat faoliyati natijasida quduqlar atrofi, artezianlar, aholi punktlari yaqinida ko'chib yuruvchi barxanlar vujudga kelgan. Chova mollar va qo'y-qo'zilarining rejasiz boqilishi natijasida yarim mustahkamlangan qumlar o'simlik qoplamisiz qoladi va ko'chib yuruvchi barxanlarni vujudga keltiradi. Bu jarayon borgan sari jadal tus olib bormoqda. Qizilqum cho'lida joylashgan deyarli barcha quduqlar atrofida 0.5-1 km masofada quduq oldi barxanlari uchraydi. [2; 50– 51 b]

Qizilqum tabiiy geografik okrug sifatida O'zbekiston tabiiy geografiasida alohida o'z o'rniga ega. Ushbu hudud XIX-XX asrlarda ayniqsa chuqur tadbiq etilgan. Paleontologik jihatdan cho'l hududini J. Devid Archibald, Aleksandr Averianov, Sergey Kurzanov, Lev Nesov, Anatoliy Riyabinin, Anatoliy Rojdestvenskiy va Gans-Dieter-Zuslar o'rgangan.[3] Shuningdek, Rossiya Imperiyasi ayg'oqchisi, Buxoro amirligiga asir tushgan Filipp Yefremov 1774-1782 yillarda o'zining "9 yillik sayohat" nomli asarida Qizilqum va Qoraqum cho'llari tabiati, flora va faunasi hamda aholisi haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Oradan biroz vaqt o'tib, 1794 yili T.S. Burnashev, 1820-1821 yillarda A. Negrilar Qizilqum va Quyi Zarafshonga qilgan ekspeditsiyalarida hududlarning o'simligi, tabiati, etnografiyasini chuqur o'rganishgan. Albatta, ushbu ekspeditsiyalarning asosiy maqsadi shu davrdagi O'rta Osiyoning markazlashgan davlatlari bo'lmish Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining harbiy-iqtisodiy saholiyati to'g'risida ma'lumotlar to'plash, ya'ni josuslik qilish bo'lgan. Biroq, Qizilqum hududini ilmiy tomondan dastlabki o'rganish ishlari ham aynan XIX asrga kelib ruslar tomonidan jadal olob borilgan. Misol uchun K.F. Butenev (1841-1842 yillarda), N.A. Seversev (1857 yilda), A.P. Fedchenko (1868- 1871 yillarda), I.V. Mushketov (1874 yilda), V.A. Obruchev (1886-1888 yillarda) boshchiligidagi ekspeditsiyalar tomonidan Qizilqum cho'lining nafaqat flora va faunasi hamda tabiati o'rganilgan, balki, cho'lining gidrologik ob'yektlari, iqlimi, aholisi, geologik foydali qazilmalari ham chuqur o'rganilgan. Sobiq Ittifoq tashkil topishi (XX asrning 20-30 yillarida) bilan Qizilqumni geologik, geomorfologik jihatdan o'rganish va foydali qazilmalarini o'zlashtirish ishlari boshlab yuborildi. Bunda D.N. Nalivkin, K.K. Marvok I.P. Gerasimov, X.M. Abdullayev, I. Hamroboyev O.Akramxo'jayev hamda A.A. Grigoryev kabi olimlarning xizmatlari katta. O'rta Osiyo hududini tabiiy geografik jihatdan rayonlashtirish va ularni o'rganish ishlarini olib borgan olimlar L.N. Babushkin, N.A. Kogay, N.A. Korjnevskiy, V.I. Cheterkin, A. Rafiqov, P. Baratov, A. Abulqosimov, L.Alibekov va P. G'ulomovlarning beqiyos xizmatlari bugungi Qizilqum cho'lini o'rganish va uni tadbiq etishda asosiy poydevor vazifasini bajarib kelmoqda. Zero, hozirgi zamon Qizilqum cho'lining 29 million gektar hududi to'liq o'rganilmagan. Mazkur hududlarni har tomonlama o'rganish va undan samarali foylanish chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish lozim. [1; 23– 26 b]

Adabiyotlar

1. Baratov P, Mamatqulov M, Rafiqov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiasida T: "O'qituvchi", 2002.

2. Hasanov I.A, G'ulomov P.N, Qayumov A.A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi (2-qism). T: "O'zbekiston Milliy Universiteti", 2010.
3. www.en.m.wikipedia.org

